

# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15 036** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **1228** mingtaga ko'paygan yoki **8,9 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,8** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar - dekabrda **2073** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,2 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni jami **15 036** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 073** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **4 105** tani yoki jamiga nisbatan **27,3 %** ni tashkil etdi.

## 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati


Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **16,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan **4,3** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **41,0** birlik, Shirin shahrida **22,5** birlik, Yangiyer shahrida **18,3** birlik, Mirzaobod tumanida **16,9** birlik, Oqoltin tumanida **16,9** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori  
ko'rsatkich

Guliston shahar  
– 41,0 birlik.

O'rtacha  
ko'rsatkich

Sirdaryo tumani  
– 15,7 birlik.

Eng past  
ko'rsatkich

Xovos tumani  
– 7,8 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida **41,0** birlik, Shirin shahrida **22,5** birlik, Yangiyer shahrida **18,3** birlik, Mirzaobod tumanida **16,9** birlik, Oqoltin tumanida **16,9** birlik, Sirdaryo tumanida **15,7** birlik, Guliston tumanida **15,0** birlik, Sayxunobod tumanida **14,5** birlik, Sardoba tumanida **12,7** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Guliston  
shahr  
41,0

Shirin  
shahar  
22,5

Yangiyer  
shahar  
18,3

Mirzaobod  
tumani  
16,9

Oqoltin  
tumani  
16,9

Sirdaryo  
tumani  
15,7

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2021- y.		2022- y.
589	Guliston sh.	439
339	Sirdaryo	280
161	Sardoba	220
183	Boyovut	202
140	Oqoltin	193
152	Guliston	168
203	Mirzaobod	162
202	Sayxunobod	131
145	Yangiyer sh.	124
124	Xovos	108
71	Shirin sh.	46


## 2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Shirin sh.	2,2
Xovos	5,2
Yangiyer sh.	6,0
Sayxunobod	6,3
Mirzaobod	7,8
Guliston	8,1
Oqoltin	9,3
Boyovut	9,7
Sardoba	10,6
Sirdaryo	13,5
Guliston sh.	16,1


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – 21,2 %, Sirdaryo – 13,5 %, Sardoba – 10,6 %, Boyovut – 9,7 %, Oqoltin – 9,3 %, Guliston – 8,1 %, Mirzaobod – 7,8 %, hissalari to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma savdo sohasida **689** ta, sanoatda **320** ta hamda qurilishda **123** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma Guliston shahrida **439** ta, Sirdaryo tumanida **280** ta hamda Sardoba tumanida **220** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **11 836** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 417** (yoki **37,3 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – **2 209** ta (yoki **18,7 %**), sanoat sohasida – **2 155** ta (yoki **18,2 %**), xizmatlar sohasida – **2 037** ta (yoki **17,2 %**) va qurilish sohasida – **1 018** ta (yoki **8,6 %**) tashkil etilgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>		
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	192	15,8
Aralash qishloq xo‘jaligi	170	14,0
Paxta yetishtirish	100	8,2
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	94	7,7
Parrandachilik	90	7,4
<b>Sanoat</b>		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	179	18,3
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	54	5,5
Beton, qurilish gipsi va tsementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	47	4,8
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	47	4,8
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	45	4,6
<b>Qurilish</b>		
Turar joy binolarini qurish	139	30,4
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	128	28,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	49	10,7
Yo‘llar va shosselar qurish	28	6,1
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	20	4,4
<b>Savdo</b>		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	382	16,5
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	323	14,0
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	314	13,6
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	108	4,7
Yog‘och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi	87	3,8
<b>Xizmatlar sohasi</b>		
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	134	13,0
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	104	10,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	95	9,2
Avtomobil transportida yul tashish	88	8,8
Sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat	29	2,8

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **4 417 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **37,3 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikataj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022 yilda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,4 %** ni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan **3,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **95,4 %** ni, yo'lovchi tashishda **95,0 %** ni, savdoda **94,0 %** ni, qishloq xo'jaligida **92,9 %** ni, yuk tashishda **91,8 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 880,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (**1 213,9** mlrd. so'm), Guliston shahar (**708,7** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**582,5** mlrd. so'm), Sayxunobod tumani (**398,8** mlrd. so'm) va Mirzaobod (**247,6** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Shirin shahrida (**28,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **31,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xovos tumani (**76,2 %**), Yangiyer shahar (**71,5 %**), Guliston shahar (**65,0 %**), Sayxunobod tumani (**63,2 %**), Sardoba tumani (**59,8 %**), Sirdaryo tumani (**46,2 %**), Mirzaobod tumani (**45,4 %**), Boyovut tumani (**38,4 %**), Guliston (**33,6 %**) va Oqoltin (**27,3 %**) yumanlari tashkil etdi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. So'm ■ o'sish foizi, %

## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 606,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,3 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **100,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (**778,1** mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (**684,2** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**234,5** mlrd. so'm), Yangiyer (**213,3** mlrd. so'm), Xovos (**149,0** mlrd. so'm), Boyovut (**134,8** mlrd. so'm) hamda Guliston (**129,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9 690,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **77,1 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021-yilga nisbatan **191,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Boyovut (**5 419,2** mlrd. so'm), Xovos (**1 829,4** mlrd. so'm), Sirdaryo (**450,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**429,0** mlrd. so'm), Guliston shahar (**375,0** mlrd. so'm), Sayxunobod (**255,5** mlrd. so'm) hamda Sardoba (**249,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi%

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **11 462,3** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **92,9 %** ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yilga nisbatan **103,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xovos (**1 985,8** mlrd. so‘m), Boyovut (**1 662,0** mlrd. so‘m), Sayxunobod (**1 579,0** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**1 472,0** mlrd. so‘m), Guliston (**1 322,1** mlrd. so‘m) hamda Oqoltin (**1 104,6** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati


## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 599,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,0 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **104,0 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

## 2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm



## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahar (**1 660,6** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**993,1** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**458,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**311,0** mlrd. so'm), Guliston (**231,5** mlrd. so'm) va Oqoltin (**212,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 619,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 52,1 % ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahar (726,5 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (499,0 mlrd. so'm), Yangiyer shahar (305,4 mlrd. so'm), Mirzaobod (175,3 mlrd. so'm), Boyovut (174,8 mlrd. so'm), Xovos (163,6 mlrd. so'm) va Guliston (151,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati


## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **4 599,9** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **94,0 %** ni tashkil etdi.


## 2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **99,7 %**, Xovos – **99,0 %**, Sardoba – **98,8 %**, Oqoltin – **98,8 %**, Guliston – **98,2 %**, Sirdaryo – **98,1 %**, Mirzaobod – **97,8 %** va Sayxunobod – **97,4 %**, eng past ko'rsatkich Boyovut tumanlarida – **72,5 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **350,3** million AQSH dollarini yoki jami importning **72,1** % ni tashkil etdi.

## 2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Sardoba – **100,0** %, Sayxunobod tumanlarida – **100,0** %, Yangiyer shahrida – **100,0** %, Xovos – **99,9** %, Oqoltin – **99,3** %, Mirzaobod – **85,2** % ni tumanlarida tashkil etdi.

Guliston sh.	39 778,5
Shirin sh.	9 571,7
Yangiyer sh.	128 547,8
Boyovut	28 013,7
Gulisto	1 022,6
Mirzaobod	10 183,0
Oqolti	2 079,2
Sardoba	6 685,8
Sayxunobod	23 029,0
Sirdaryo	92 222,1
Xovos	9 174,2


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



Yuk  
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi.


---



Yuk  
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **81,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,8 %** ni tashkil qildi.


---



Yo'lovchi  
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,0 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,1 %** ni tashkil qildi.

---



Yo'lovchi  
aylanmasida


2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.

---



# Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil VI chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **481** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **159 (33,1 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **260 (54,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **62 (12,8%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,7 % (196 ta)**, xizmatlar sohasida – **24,9 % (120 ta)**, sanoatda – **14,1 % (68 ta)**, qurilishda – **11,2 % (54 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,9 % (43 ta)** ni tashkil etdi.

## 2022- yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


## 2022- yil VI chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (137 ta), Sirdaryo tumani (73 ta), Yangiyer shahri (44 ta), Boyovut (44 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning VI choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **47,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **23,9 %** ni, sanoatda – **11,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo – **38,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **25,4 %** ni, sanoatda – **13,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,7 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **25,8 %** ni, sanoat sohasida – **21,0 %** ni tashkil etdi.

## 2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **19,0 %** ni, sanoat sohasida – **16,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **37,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **30,9 %** ni, sanoatda – **11,4 %** ni tashkil etdi.

**Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **42,2 %** ni, sanoat – **20,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **20,0 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	46,0	38,2	15,8
<b>Band bo'lganlar soni</b>	22,4	67,0	10,5
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	43,3	46,3	10,3
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	27,5	57,9	14,6
<b>Raqobat muhiti</b>	47,8	45,2	7,0

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	50,3	42,0	7,7
<b>Band bo'lganlar soni</b>	29,3	66,3	4,4
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	46,2	47,8	6,0
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	35,3	57,6	7,1
<b>Raqobat muhiti</b>	47,2	47,8	5,0


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli